



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTRISH TEXNOLOGIYASI

Muallif: Nabijonov Ravshanbek Obidjon o'g'li ¹

Affilyatsiya: Navoiy davlat universiteti “Musika ta`limi” kafedrasida o'qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14438094>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari musika madaniyati darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish borasida so'z yuritiladi. O'quvchilarda tayanch kompetensiya haqida ko'proq tushunchaga ega bo'lishlari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kompetensiyalar, pedagogik mahorat, texnologiya.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya tizimini hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga, ya'ni pirovard natijada malakali, bilimli kadrlar tayyorlashga bog'liq. Chunki jamiyat taraqqiyoti asosini uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanganligi bilan bir qatorda, shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma'naviy salohiyati ham belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda har bir davlatning istiqboli, uning ta'lim tizimi qay darajada yekonligi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida bu borada shunday deydi: “Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”. Darhaqiqat, hozirda yoshlarimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori o'sib, ma'naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Yoshlarimizning ma'naviyatini shakllantirishda musika tarbiyasining o'рни beqiyosdir. O'quvchi-yoshlarga musiqani o'qitish va musiqiy ta'lim berish kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan musika o'qituvchisining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyatiga bog'liq. Zamonaviy musika o'qituvchisi o'quvchiga ta'sir etish, uning istaklarini, e'tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Demak, zamonaviy maktabga yuksak salohiyatli, oliy ma'lumotli, faol, izlanuvchan, ijodkor-pedagog kerak.

Respublikamiz olimlari tomonidan mustaqil rivojlanish yillarida o'quvchilarni musiqiy kompetensiyalarini shakllantirishga doir qator ilmiy yo'nalishlar ishlab chiqildi, bu yo'nalishlar maktab musika ta'limida ham bir qator dasturiy ishlab chiqishning nazariy asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Jumladan, ularning tadqiqot ishlarida

musiqiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning maktab musiqa darslarida yosh xusiyatlariga mos nazariy asoslari ham o`rganiladi.

Kompetentlik va innovasiya faoliyatini tadqiq etuvchi izlanuvchilarning aksariyati bu faoliyatlarni tizimli, qayta takrorlanuvchi, aniq joy va vaqtda foydalanish mumkin bo`lgan hodisa sifatida tasavvur qilishadi. Hozirgi davrda umumta`lim maktablarida musiqa o`qitilishiga talablar o`zgarib borilganligi munosabati bilan ushbu ta`lim muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan o`quvchi tayyorlash zaruriyatini oshirmoqda. Shuning uchun o`quvchi yoshlarning musiqiy estetik ta`limlarida, ularni musiqiy tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, sifatini oshirish bevosita innovasion komponentlarga asoslangan kompetent yondashuv mazmunini takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

Umumta`lim maktablari o`quvchilarini jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy hayotiga kirib ketishini ta`minlash, ularning musiqiy ta`lim bo`yicha zaruriy bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish mazkur ta`lim muassasalarida o`quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish masalasiga bog`liqdir. Bundan kelib chiqadiki, umumiy o`rta ta`lim tizimida bo`lajak o`quvchilarni musiqiy tayyorgarligida ta`lim jarayonining maqsadi faqatgina bilimlar bilan qurollantirish emas, balki yoshlarni tarbiyalay olish, ijodiy rivojlantirish, musiqiy bilimlarni faol o`zlashtirishga tayyorlashga qodir bo`lgan, kafolatlangan kompetentlikka ega bo`lgan insonlarni tayyorlash bilan izohlanadi.

O`quvchilarda musiqiy kompetentlikni shakllantirishga yo`naltirilgan ta`limning mazmuni, o`qitishning shakl va metodlarini aniqlash maqsadida olib boriladigan ishlar "o`qituvchi-o`quvchi-o`quvchilar guruhi" bo`lgan muayyan tizimning tashkiliy-metodik jihatlari bilan uzviy bog`liqdir. Shunga ko`ra aytish malumki, umumta`lim maktablarida o`quvchilarda musiqiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini baholash va taxlil qilish musiqiy faoliyatlar olib boriladigan o`quv-tarbiyaviy ishlarni sifatini taxlil qilish bilan uyg`unlikda bo`lishligini taqozo etadi.

Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini o`rganish (kuzatish, so`rovnomalar o`tkazish, natijalarni umumlashtirish, xulosa chiqarish) bo`yicha izlanishlar shuni ko`rsatdiki, ayni hozirgi davrda umumta`lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o`qitish jarayonida o`quvchilarda tayanch musiqiy kompetensiyalarni shakllantirish yoki shakllanganlik darajasi davr talablaridan bir oz orqada qolmoqda. Musiqa madaniyati fanini o`qitish jarayonida tayanch musiqiy kompetensiyalarni shakllanganlik darajasi va o`quvchilarni o`z faoliyatida (nazariy savodxonligi, amaliy ijrochilik, bilim, malakalarini) anglashi, o`z kamchilik va yutuqlarini bilgan holda kompetentligini rivojlantirishga ehtiyojini anglash va o`z ustida ishlash konikmasiga harakat qilmasligi. Bu narsa umumta`lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o`qitish jarayonida o`quvchilarda tayanch musiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni musiqiy nazariy va amaliy ijrochilik ko`nikma va malakalarini uzluksiz shakllantirib borish kabi ishlarga zarur pedagogik shart-sharoit yaratish ishlariga ham e`tibor berilishining natijasidir.

Kompetensiya - u yoki bu soha bo`yicha bilimdonlik bo`lib, inglizcha "competence" tushunchasi lug`aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma`nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi [1, 10 b]. Masalan: Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan competentia, «compete» so`zidan olingan

bo'lib – “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman” degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa “nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish”, “xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq” degan ma'noni bildiradi. Bundan tashqari kompetentlik darajalari mavjud bo'lib, tayanch kompetentlik

- ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni nihoyasida ega bo'lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalaridir.

- kasbiy kompetentlik- mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi;

O'qituvchining pedagogik ijodkorligi va qobiliyati - faqatgina o'qituvchining o'ziga xos bo'lib, pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish, olib borilishiga imkon beriladigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar bilan ham boshqalardan ajralib turadi[3, 53 b]. O'qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida uchraydigan kasbiy sifatleri to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ... « Pedagog - sof vijdonli, ishchan, sabotli, matonatli, o'quvchilarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlarining ibratli kishisi bo'lishi, keng ma'lumotli va mehnatga layoqatli inson bo'lishi lozim. U o'z fanini behad sevishi, o'quvchilarga bamisoli otalardek muomalada bo'lishi va har bir ilm oluvchi qalbida bilimga havas tug'dirishi lozim” [2, 96 b] - deb aytgan so'zlari hozirgi davrda ham pedagoglarimizga qanchalik ibratli ekanligini ta'kidlash joiz.

Xulosa qilib aytish lozimki, o'qituvchining kompetentligi - mohir, ijodkor, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning musiqa madaniyati dars jarayonida ham, ularning olgan bilimlarida ham tayanch kompetensiyalari qanchalik shakllanganligini anglash va ularni yanada rivojlantirishga bo'lgan qiziqish ortib boradi. Shunga ko'ra aytish joizki, umumta'lim maktablarida o'quvchilarda musiqiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini baholash va tahlil qilish, musiqiy faoliyatlar olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarni sifatini tahlil qilish bilan uyg'unlikda bo'lishligini taqozo qiladi.

Musiqiy tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar nafaqat musiqa san'atining texnik jihatlarini o'zlashtiradilar, balki ularni estetik, madaniy va ijodiy nuqtai nazardan ham tushunadilar. Bu kompetensiyalar shuningdek, o'quvchilarda jamoaviy ish, ijodiy fikrlash va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Musiqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, kelajakda musiqiy sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan tayanch ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Isakulova N. «O'quv jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uslublari», Toshkent, «Fan», 2013 yil

Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.: Moliya, 2003 yil.

Karimova D.A. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» .-Toshkent., Moliya. 2008 yil.